

**Samarqand tumanida 2024 yil “Tashabbusli budget” jarayonining
1-mavsumida amalga oshirilgan ishlar hamda 2024 yil 2-
mavsumi yakuni bilan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan
tadbirlarni moliyalashtirishga mablag’larni yo’naltirish to’g’risida**

H I S O B O T I

Assalomu aleykum hurmatli Sirojiddin Xayrullayevich!

Xurmatli deputatlar va sessiya qatnashchilar!

So’nggi yillarda mahalliy byudjetlar mustaqilligi, shaffofligi va ochiqligini hamda mahalliy byudjet xarajatlarini taqsimlashda jamoatchilik va fuqarolarning ishtirokini ta’minalash borasida keng ko’lamli islohotlar olib borilmoqda.

Xabarlariningiz bor, 2024 yil fevral-aprel oylarida “openbudget” axborot portalı orqali “Tashabbusli budget” ya’ni jamoatchilik fikri asosida bildirilgan takliflarni amalga oshirish bo'yicha 2024 yil 1-mavsum o'tkazilgan edi. 1-mavsum doirasida 16 ta loyihalarni amalga oshirish uchun 20 mlrd 365 mln. so'mlik shartnomalar tuzilgan bo'lib, pudratchi tashkilotlarga 6 mlrd 457 mln. so'm mablag' moliyalashtirib berildi. Bugungi kunda ushbu loyixalarda qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda “Tashabbusli budget” jarayonining 2024 yil 2-mavsumi (iyul-sentyabr oylarida) bo'lib o'tdi, “Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi”da 12 mlrd 268 mln. so'm mablag'lar shakllangan. Shakllantirilgan mablag'lar doirasida “Tashabbusli budget” jarayonining 2-mavsumi 2024 yil 6 iyuldan-1 sentyabr kuniga qadar to'rt bosqichda o'tkazildi.

1-bosqich: 2024 yilning 6 iyuldan 26 iyul kuni oralig'ida taklif qoldirish jarayoni orqali bo'lib o'tdi. Bunda fuqarolar tomonidan o'z xududidagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha “openbudget.uz” axborot portalı orqali jami 149 mlrd. so'mlik 118 ta takliflar bildirildi.

2-bosqich: 2024 yilning 26 iyuldan 15 avgustgacha takliflarni saralash jarayoni, barcha takliflar moderatsiyadan o'tkazilib, ishchi komissiya tomonidan ko'rib chiqildi va 109 ta takliflar qabul qilinib keyingi bosqichga o'tkazildi. 9 ta takliflar belgilangan me'zonlarga (bir-birini takrorlovchi, boshqa hududga ta'luqli, shaxsiy xususiyatga ega va hokazolar) mos emasligi sababli rad etilib tashabbuskorlarga rad etilganligi to'g'risida sms orqali xabarnomalar yuborildi.

3-bosqich: 2024 yilning 15 avgustdan 22 avgustgacha "Targ'ibot bosqichi" o'tkazildi.

4-bosqich: 2024 yilning 22 avgustdan 1 sentyabr kuniga qadar ovoz berish jarayoni bo'lib o'tdi, bunda qabul qilingan takliflar doirasida ovoz berildi. Natijada eng ko'p ovoz to'plagan 9 ta takliflar (12 mlrd 240 mln so'm) g'olib deb topildi. Jumladan:

- 1 ta taklif bo'yicha 1 mlrd 360 mln. so'mlik 3-sonli tug'ruq majmuasini jixozlash;
- 4 ta taklif bo'yicha 5 mlrd. 440 mln so'mlik Tuman Maktabgacha va maktab ta'llimi bo'limiga qarashli 41,9,2 va 24-sonli umum ta'lim maktablarining qurilish va ta'mirlash ishlarini bajarish.
- 2 ta taklif bo'yicha 2 mlrd 720 mln so'mlik Tuman Tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi obyektlarni ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar.
- 2 ta taklif bo'yicha 2 mlrd 720 mln so'mlik Yuqori Chordara MFY va Xishrav MFY ichki ko'chalarini ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar.

Bugungi kunda ushbu loyixalarni amalga oshirish uchun Xalq deputatlari tuman kengashi sessiyasi orqali manzilli ro'yxatini shakillantirish ishlari amalga oshirilmoqda.

E'tiboringiz uchun raxmat!

**Tuman Iqtisodiyat va moliya
bo'limi boshlig'i**

F.Misirov